

ILM-U ZIYO JADIDLAR ZIKRIDA

Mo‘minjon Siddiqov

QDPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Jadidlargacha va jadidlar ham ilm ham uni egallash har bir kishi uchun farzligini bevosita islomiy qarashlar ta’sirida talqin qilganlari ma’lum. Mazkur maqolada ilmning mohiyati, ilm kishi ongi va hayot tarzini o’zgartirishda muhim o’rin tutishi yuzasidan allomalar hikmatlari misolida so’z yuritiladi. Jadidlarning xalqning keng ommasini ilmga da’vat etishlarining sabablari yoritiladi. Ilmni targ’ib etuvchi adabiyotlar, darslik va o’quv qo’llanmalari tayyorlaganlari, bularni o’zlarining pedagogik faoliyatida foydalanganliklari to’g’risidagi mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Ilm, ilm haqida, ilm egallash, foydalari, dunyoviylik, uxroviylik, olim, muallim, qurbat, qo’rquv, jihad, jannat, minora, kalit, jadidlar, maktab, maorif, kitob.

Hazrati Umar (r.a.) ilmni jannatning minorasi deganida ming bora haq edi. Zero Insonning kimligi va qanday aql-zakovatga egaligini ilm ko’rsatadi. Ilm olgan inson ikki dunyo saodatiga musharraf bo’ladi. Ilm bir tilloga o’xshaydi. Ming yil botqoqda yotsa ham, tusini o’zgartirmaydi. “Ilm, hazrati Umar (r.a.) deganlaridek, talab qilish – ibodat, uni o’z ahllariga o’rgatish - Allohga qurbat, uni egallashga intilish, o’rganish - Allohdan qo’rqish. Ilmni izlash - jihad, bilmaganlarga o’rgatish, birovga yuqtirishlik - sadaqa. Ilm tanholikda hamroh, begonalar oldida sodiq do’st, jannat yo’lining kaliti”. [Qozonchi;3,75] O’tmishda yashab o’tgan allomalarning barchasi ilmni targ’ib etganlar. Zero Ilm kalimasi Allohning so’zi. Ilohiyligining yana bir dalili – arab grafikasida “ayn” harfi bilan yoziladi. Shuni aytish lozimki, uhroviy mazmun ifodalovchi, deyarli, barcha so’zlar arab grafikasida “ayn” bilan yoziladi: [علم] Mazkur so’z Qur’oni majidda yetti yuz ellik marta zikr etilgan, deydi mufasssirlar. Allohning chiroyli ismlaridan biri ham Olim, ilm so’ziga ishtiyoq. Rasulilloh (s.a.v.) sunnatlarida ilm borasida marhamat qilganlari talaygina.

Imomi G’azzoliy “Kimiyoyi saodat”ning bir qator fasllarida ilm va uning turlari - zohiriy ilmlar, botiniy ilmlar, uning foydalari, insonning ko’ngli bilan bog’liq tomonlari haqida mushohadalarini bayon qilganlar: “Dilda andog’ quvvat bordurkim, hamma ilmni va hamma hunarlarni bilur. Va hamma kitoblar ma’nosini fahm qilur. Chunonchi: ilmi handasa va ilmi hisob va ilmi tib va ilmi nujum, ilmi shariat va ilmi kasb”. [G’azzoliy; 1,45]

Hazrat Alisher Navoiy abyotida ilm ko’p va xo’b zikr qilingan. “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul-lug’atayn”, “Devoni Foni”dagi qasidalarda, “Nazmul javohir”dagi taronalarda Allohning bu ne’mati borasida hikmatlari havola etilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur bir ruboiysida bunday yozgan edi:

Kim yor anga ilm, tolibi ilm kerak,
O’rgangali ilme tolibi ilm kerak.
Men tolibi ilmu tolibi ilme yo’q,

Men bormen ilm tolibi ilm kerak. [Bobur, 4,286]

Jadidlar Yusuf Xos Hojib, Adib Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Munis, Komil, Ogahiy, Furqat singari daho san’atkorlarning haqli vorisi sifatida ilmni insonning hayot yo’lini munavvar etuvchi, jamiyatni taraqqiyga eltuvchi bir vosita sifatida baholaganlar. Masalan, Avloniy she’rlarida ilm haqida quyidagilarni o’qiyimiz:

Ilmdur ikki jahon manzilining a’losi,
Ilmdur ikki jahon masnadining bolosi,
Ilmdur ikki jahon rohatining ma’vosi,
Ilmdur ikki jahon shavkatining barposi.

Ilm bir gavhari noyob, yo’q o’lmas, bitmas,
Ilm bir nuri ziyodurki, jilosi ketmas,
Ilm biri nuri ilohiy – kishini xor etmas,

Ilm bir quvvat erur – millatini mahv etmas. [Avloniy; 2,96] Hatto Rasulilloh (s.a.v.)ning ilm haqidagi sunnatlarini iqtibos qilgan o’rinlar ham anchagina: “Buyurdi: “ Utlub ul-ilm va lav bi-s-Sini” Payg’ambar, degan shoir, [Avloniy; 2,102] boshqa she’rida buning o’zbekchasini havola qiladi: “Ilm o’rgangil Xitodin bo’lsa ham der Mustafo” [Avloniy; 2,108]

Ayniqsa, Hamza Hakimzoda boshqa jadidlarga qaraganda ham ilm-u ziyoni ko’p targ’ib qilgan shoir-pedagoglardan bo’lgan. Uning milliy she’rlarida ham, qaysidir sabablarga ko’ra o’z vaqtida chop etilmay qolgan “Yengil adabiyot”, “O’qish kitobi”singari qo’llanmalarida ham ilmning Alloh o’z bandalariga ato etgan ulug’ ne’matlaridan biri ekanligi ko’p ta’kidlangan. Chunonchi, “Yengil adabiyot”da ilm va ilmsizlik bir-biriga qarshi qo’yilib, quyidagilar darj qilinganligining shohidi bo’lish mumkin:

Ilm - har tilak boshi, Qorong’u dil quyoshi;

Ilm - Haqning rahmati, Har bandaning davlati;

Ilmdur lutfi Xudo, Yo’l boshlag’ich bir xido;

Ilm – jannat eshigi, Xazinaning teshigi;

Ilm - Haqning shevasi, Jannatidan mevasi;

Ilm – maqsadni(ng) guli, Millat – ani bulbuli;

Ilm – Haqning farmoni, Har bir dardning darmoni.[Hamza; 12,321-323]

E’tibor qilinsa, Hamza mazkur misralarni ayni xalqona usulda, Hoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg’oniy uslubida bitganligini sezish qiyin emas. Bundan kutilgan maqsadlar esa, birinchi galda, o’quvchi yoshlarga Ilm mohiyatini anglatish, ikkinchi tomondan, Ilm inson hayotida ezgu xulqlarning qaror toptirishi, hayotini tubdan yaxshilashga sabab bo’lishi, orzular ko’lamining kengayishi va ro’yobga

chiqishi, muhimi esa o‘zligini tanib, komil inson bo‘lishini uqtirishdan iboratdir. Shuning uchun ham shoir qisqa, ta’sirchan va xalq orasida keng tarqalgan o‘xshatishlarga to‘yintirilgan misralarda Ilmning mohiyati hamda ahamiyatini ko‘rsatishga harakat qiladi. Bu misralarning birortasida murakkablik, g‘alizlik yo‘q. Xuddi ikki karra ikki – to‘rt, deganday gap. Biz kitobdan faqat Ilm mohiyatini ochuvchi misralarni saralab oldik. Makur darsning keyingi o‘rinlarida ilm egallashning foydalari – natijalari haqida so‘z boradi. Bu o‘rinlarda ham shoir murakkablik yo‘lini tutmaydi, balki sodda misralar vositasida ana shu badiiy niyatini bayon qilishga erishadi. Va bunda ham ancha o‘ng‘ay, tushunilishi oson, lekin ta’sirchan tashbehlarni ishga soladi. Berilgan qo‘sh misralardan Ilm egallashning yo‘llari ham uqtirib boriladi:

Ilm bo‘lsa pirimiz, Qalam tirnoq tiyrimiz;

Ilm bo‘lsa ziyomiz, Qalamdir o‘qu yomiz;

Ilm bo‘lsa bozimiz, Qalam o‘lgay tozimiz.

Ilm o‘lsa boshchimiz, Milyonerdur toshchimiz;

Ilm o‘lsa o‘qimiz, To‘yar ham och-to‘qimiz va h. [Hamza; 12,324-326]

Yuqarida aytganimizdek, shoir Ilmning mohiyati va na‘flari xususida so‘z yuritar ekan, uning ziddi bo‘lgan johillikni (ilmsizlikni) ayni usul, ya’ni sodda, xalqona o‘xshatishlar vositasida qiyosan badiiy tasvirlab beradi. Uning xulosalariga ko‘ra, jahl (ilmsizlik) insonni zalolatga, afsus-nadomatga, qayg‘u xasratga, hayot mushkulotlariga yetaklaydi:

Ilm o‘lsa bog‘imiz, Eng suyangan tog‘imiz,

Ketub ko‘ngul sof o‘lur Zangu dardu dog‘imiz.

Jahl o‘lsa bog‘imiz Gar suyangan tog‘imiz,

Qon to‘lg‘usi tosh kelub, Sinub ham tish jog‘imiz. [Hamza; 12, 324]

Kitobning yigirma ikkinchi darsidan boshlab, shoir ilmning natijalarini yanada kengroq badiiy bayonlashga o‘tadi. Olim va johil timsollari bu o‘rinlarda bandlar markaziga olib chiqiladi. Yuqorida bo‘lgani kabi kichik bir to‘rtlikda Olimning xislatlari xususida so‘z yuritsa, ikkinchi badda olimning ziddi bo‘lgan Johilning fe‘llari tavsif qilinadi. Olimning komilligi bilan Johilning noqisligi qiyoslanadi. Bunda ham shoir yuqoridagi to‘rtliklarda istifoda etilgan yo‘ldan og‘ishmaydi. Ya’ni murakkablikka bormay, Olimning nekbin xislatlarini bir badda bayon etsa, keyingi badda Johilning bema’ni xulq-atvori, zalolatga botishi, ilm-u ziyodan mosuvo ekanligi oqibatlarini to‘g‘risida so‘z yuritib boraveradi:

Olim bo‘lsak dunyoda, Kelur har ish bunyoda,

Biz ham suv ostin kezub, Ham ucharmiz havoda.

Johil qolsak dunyoda, Xo‘rlik kelur ziyoda,

Hayvon kibik yuk tashub, Cho‘l kezarmiz piyoda.

Olim bo‘lsak oz o‘tar, Shuhrat olamni tutar,
Bizni(ng) qilgan taraqqiy Barcha millatdan o‘tar.
Johil qolsak oz o‘tar, Ko‘zlarni parda tutar,
Ko‘rmay bosarmiz qadam, Birin-birin yer yutar.

Olim bo‘lsak zora biz, Qo‘lga kelib choramiz,
Ilm dorusi bilan Tuzalgaydir yoramiz.
Johil qolsak boramiz, Qo‘ldan ketib choramiz,
Yo‘q illatlar qo‘zishub, Ko‘payg‘usi yoramiz.

Olim bo‘lsak ahlimiz, Obod o‘lur dahrimiz,
Oltun, kumushlar to‘lub, Oqar ariq nahrimiz.
Johil qolsak ahlimiz, Fasod oqub nahrimiz,

Uzoq zamonga bormay, Xarob o‘lur shahrimiz. [Hamza; 12,324-326]

Qo‘shmisrali bu bandlar, zohiran qaralganda, oddiy, sodda so‘zlar jamlanmasiga o‘xshab ketadi. Biroq uning tagzaminida shunday ulug‘ maqsadlar namoyon bo‘lganki, bu sharqiyalar mazmunidan ilm-u ziyo nafi inson va jamiyat uchun benihoya katta ekanligini tushunib yetish mushkul emas. Shoir she‘riyatning oroyish libosi bo‘lmish badiiy tasvir vositalarini me‘yorida ishlatish va bolalarning anglash qobiliyatlarini hisobga olgan holda bu kabi misralar tuzganligi, bandlar yaratganligi shu davr uchun benihoya katta ahamiyatga molik ekanligini hech inkor qilib bo‘lmaydi. Buning yana bir dalili shuki, she‘rlarning tili xalq tiliga benihoya yaqin bo‘lib, xalq qo‘shiqlari singari barmoq vaznida, uning $4+3=7$ turoqlanishida yozilgan. “Yengil adabiyot”dagi aksariyat she‘rlar barmoq vaznida. Ayni paytda aruz vazniga tushadigan she‘rlar ham yo‘q emas. “O‘qish kitobi”da esa barmoq vazniga tushadigan she‘rlardan ko‘ra, aruz vazniga tushadigan she‘rlarning salmog‘i ko‘proq. Chunonchi, “ilm” so‘zi radifga chiqarilgan, g‘azal janriga mansub bo‘lgan she‘ri 13 bayt. Devonida bo‘lgani kabi bu g‘azalda ham “Nihon” taxallusini qo‘llagan. Bahri: ramali musamani maqsur. Afoyili foilotun foilotun foilotun foilon. Taqte’si: -V- - / -V- -/ -V- -/ -V- V-

G‘azalning matla’sidanoq shoir masalaga qur’oniy hukmlardan kelib chiqib yondashadi. Modomiki, Qur’oni karim va hadisi shariflarda ilm olish muslim va musulmalar uchun farzu ayn ekan, ilm dinning besh ahkomi kabi bajarilishi shart qilingan amallar qatorida turadi. Shuning uchun har bir muslim va muslima Allohning bu ulug‘ ne‘matidan bahramand bo‘lishi lozimligi uqtiriladi:

Farz-u ayn o‘lmish bizim din ichra bo‘l xushyor ilm,
Bor-u yo‘q muslimlig‘ingni farqiga darkor ilm. [Hamza; 12,350]

G’azalning keyingi baytlarida ham radifga chiqarilgan “ilm” so’zining mohiyati hamda inson hayotidagi o’rni darj etilib, shoir bu mazmunni xuddi “ishq” so’zining tavsifidek, istioraviy timsol vositasida ta’rif qiladi. Baytlarda istifoda etilgan tashbeh va istioralar oshiqona g’azallarda ifoda qilingan vazifalardan chekinib, “ilm” timsolini tavsiflashga bo’ysundiriladi:

Hech kasdan g’unchayi donish ochilmas, ey rafiq,

Har saboq qalbiga tegmas neshayi munqor ilm. [Hamza; 12,350]

G’azalning keyingi baytlarida shoir ilm tavsifi hamda ta’rifini bardavom qiladi. 9-baytga kelib esa taqqoslash usulini qo’llashga o’tadi. Agar olamning xurshidi (bu o’rinda xurshid so’zining yorituvchi, nurlantiruvchi ma’nolari nazarda tutilmoqda) kun (quyosh) bo’lsa, odam uchun bu vazifani ilm bajarib, tirikchilik olamini munavvar etadi. Agar tun olamning zulmati, zimistoni bo’lsa, insonning zimistoni ilmsizlikdir, degan xulosani havola qiladi. Shuning uchun shoir mana bu hikmatnamo baytlarni tizadi:

Har muroding, maqsadingga yetmoq istarsan, murod:

Ko’z ochib bedor bo’l; darkor ilm, tarkor ilm. [Hamza; 12,350]

Da’vat bilangina kifoyalanmagan shoir, nasihatga ham o’tadi: “taraqqiy etgan millat eliga quloq sol, nazar tashla. Ularning doimiy (kecha-kunduz) so’zlari, amallari ilm fikrida”, degan shoir boshqa millatlarning taraqqiy topishi ilm orqali ekanligini yana bir karra uqdirib o’tadi. Maqta’da shoir o’z-o’ziga murojaat qilishi o’laroq, millatdoshlari bo’lgan yoshlarga ilm istashlari darkorligini yana bir bo’r ta’kidlab o’tadi.

Ul haqiqat oyinig’a sayqal istarsan, Nihon,

Ilm ista, ilm ista, istag’il zinhor ilm. [Hamza;12, 350]

Ya’ni, ey Nihon, agar yuqorida aytilgan royishlarga sayqal istamoqchi bo’lsang, o’zing ham ilm istagil. Bu o’rinda “zinhor” so’zi, o’z ma’nosi “hech qachon” so’zidan chekinib, “doimiy”, “har doim” ma’nolarini ifodalashga ko’chganligini unutmazlik lozim.

Xullas, jadidlar o’z maqsadlari, dasturlari talabidan kelib chiqib, kishilarni, ayniqsa, yoshlarni ilm olishga da’vat etganlar. Da’vatning turli shakllarini o’ylab topganlar va, birinchi navbatda, she’riyatning ta’sirchan kuchidan foydalanishga harakat qilganlar. Bulardan tashqari, sahna asarlari, badiiy nasrdan, publitsistikadan, hatto, yangi janr bo’lgan drama va tragediyalardan foydalanganlar. Ilm mavzusi, yangi paydo bo’lgan teatrularni ham, sharqiya ohanglari bilan yo’g’rilgan musiqalarni ham qamrab olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимйойи саодат. I жилд. Руҳ ҳақиқати.– Т.: Адолат, 2005.
2. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. Шеърлар, ибратлар. Т.: Маънавият, 2006.
3. Аҳмад Лутфий Қозончи. Ҳазрати Умар ибн Хаттоб. – Т.: Мовароуннаҳр, 2005.
4. Бобур; Назм дурдоналари, - Т.: Шарқ, 1996.
5. Каримов Н. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг XX аср ўзбек адабиёти тараққиётидаги ўрни ва аҳамияти. - Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. – Фарғона, 2019.
6. Сабирдинов А. Ҳамза шеърлятидаги воқеа талқини. - Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. – Фарғона, 2019.
7. Сиддиқов М. Баҳолаш меъёрида эврилишлар ва оқибатлар. – Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. – Фарғона, 2019.
8. Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари // Филология фанлари доктори (DS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2017.
9. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва бош. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университет ва педагогика олий ўқув юртлари учун дарслик. - Т. : Маънавият. 2004.
10. Ҳамдамов У. Ҳамза ва янги ўзбек адабиёти. - Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. – Фарғона, 2019.
11. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Биринчи том. Девон. – Т.: Фан, 1988.
12. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Иккинчи том. Шеърлар, педагогик рисолалар, насрий асарлар. – Т.: Фан, 1988.